

EKOLOGIYA BORASIDAGI BUGUNGI KUN QARASHLARI VA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Nasiba Shodiyeva Ro‘zimurod qizi

Navoiy viloyati Uchquduq tumani

Kasb-hunar maktabi

Informatika va axborot texnologiyalari o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilina foydalanishda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ekologik auditning o‘rni va ahamiyati, shuningdek jamoatchilik ekologik nazoratni takomillashtirish masalasida takliflar bayon etilgan.

Kalit so‘zlari: *Jamoatchilik nazorati, ekologik nazorat, tabiiy boyliklar, jamoatchilik ekologik nazorati, ekologik audit, ekologik ekspertiza.*

KIRISH

So‘ngi vaqtlarda demokratiyaning va fuqarolik jamiyatining rivojlanganlik darajasini belgilovchi muhim omillardan biri bu fuqarolarning davlat va jamiyat ishlaridagi ishtiroki qay darajada ta‘minlanganligi bo‘lib, ushbu jarayonda fuqarolik jamiyati institutlari faol jalb etilib kelinmoqda.

Jamoat nazorati davlat organlari va mansabdor shaxslarni qonunlarga qat‘iy va og‘ishmay amal qilishlarini hamda umummilliy vazifalarni hal qilishga oid majburiyatlarini samarali bajarishlarini ta‘minlashga, davlat boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda ekologiya sohasining barcha yo‘nalishlarida keng qamrovli dasturiy tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda.

2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “global iqlim o‘zgarishlari va Orol dengizi qurishining qishloq xo‘jaligi rivojlanishi hamda aholining hayot faoliyatiga salbiy ta‘sirini yumshatish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar ko‘rish;

insonlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta‘minlash, maishiy chiqindilarni qayta ishlash komplekslarini qurish va modernizatsiya qilish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, aholini chiqindini yo‘q qilish bo‘yicha zamonaviy ob‘ektlar bilan ta‘minlash, atrof muhitga zararli moddalar chiqishini kamaytirish; atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarni oldini olish” kabi muhim vazifalar belgilangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

Jamoat nazorati fuqarolarni boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ijro etish jarayoniga keng jalb etish asosida jamoatchilik sa'y-harakatlarini amalga oshirish imkonini beradi. Tabiiy boyliklar O'zbekiston xalqining umummilliy boyligi bo'lib, u insonlarning turmush faravonligi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosini tashkil etadi.

Inson, uning hayoti va sog'lig'ini atrof tabiiy muhitning salbiy ta'siridan muhofaza qilish O'zbekiston Respublikasi ekologik qonunchiligining asosiy maqsadi hisoblanadi. O'zbekiston Prezidenti SH.M.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq muammolar to'g'risida so'zlagan nutqida "Bugungi kunning eng o'tkir ekologik muammolaridan biri – Orol halokatiga yana bir bor e'tiboringizni qaratmoqchiman. Dengizning qurishi bilan bog'liq oqibatlarni bartaraf etish xalqaro miqyosdagi sa'y-harakatlarni faol birlashtirishni taqozo etmoqda", deb ta'kidlab o'tgan edi.

Mamlakatimizda 2013 yil 27 dekabrda "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonun qabul qilinishi bilan ilk marotaba "ekologik nazorat" tushunchasiga legal ta'rif berilganligini ta'kidlash lozim. Ya'ni, ushbu Qonunning 3-moddasida ekologik nazoratga "atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonun hujjatlari talablari buzilishining oldini olish, uni aniqlash va unga chek qo'yishga, tabiatni muhofaza qilish faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va jamoatchilik chora-tadbirlari tizimi" sifatida ta'rif berildi.

Ekologik munosabatlarni tartibga solishda ekologik nazorat tizimining biri bo'lgan jamoat ekologik nazorati muhim ahamiyat kasb etadi. Ayrim adabiyotlarda ta'kidlanganidek, "Davlat nazorati bilan bir qatorda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, xalqimiz ongi va madaniyatida ona vatanimiz tabiatiga bo'lgan mehrmuhabbatini oshirish, uni asrab avaylash va kelgusi avlod uchun zarur xayotiy sharoitlar qoldirishimiz kerakligini ko'rsatish zarur".

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Jamoatchilik ekologik nazoratini o'tkazish tartibiga aniqlik kiritish chog'ida uning obyekt bo'lib, atrof muhitning holati, tabiatni muhofaza qilish qonunchiligini bajarish jarayoni, vazirliklar, idoralar, muassasalar, tashkilotlar, shuningdek mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan qoida va normalarga rioya qilinishi hisoblanishini ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq.

Jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirish tartibining huquqiy asoslariga "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonunning 19-moddasida jamoatchilik ekologik nazorati fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar tomonidan amalga oshirilishi hamda mazkur tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan namunaviy nizomga muvofiq belgilanishi ko'zda tutilgan, hujjatlar kiradi.

L.V.CHxutiashvili esa, jamoatchilik ekologik nazoratining yana bir shakli sifatida ekologik auditni ko'rsatadi.

Muallifning fikricha, ekologik audit – tashkilot yoki boshqa iqtisodiy ob'ekt to'g'risida ekologik axborotni olish va baholash, tegishli choralar ishlab chiqish hamda turli darajadagi qarorlar qabul qilishning vositasi hisoblanadi.

Ekologik audit tashkilot faoliyatining nafaqat tabiatni muhofaza qilish, balki aholi va hududlar xavfsizligini himoya qilish sohasidagi qonunchilikka mosligini mustaqil, hujjatli tekshiruv sifatida namoyon bo'ladi.

“Ekologik auditning vazifalari sifatida tashkilotning ekologik xavfsizligini ta'minlash; tashkilotning tabiatni muhofaza qilish faoliyatini baholash; xo'jalik faoliyati va boshqa faoliyatning atrof muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish yo'llari va usullarini aniqlash; tashkilot tomonidan ekologik to'lovlarning hisoblanishi va to'lanishi to'g'riligini aniqlash; tashkilotning tabiatni muhofaza qilish faoliyatini takomillashtirish zarurligini aniqlash; amalga oshirilayotgan xo'jalik-ishlab chiqarish faoliyatining va boshqa faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini aniqlash;

yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini va jihozlarni tatbiq etish zaruriyatini aniqlash kabilar belgilangan. Ekologik audit xo'jalik va boshqa faoliyat obyektiga egasining qaroriga binoan o'tkaziladi. Ekologik audit buyurtmachi mablag'lari hisobidan o'tkaziladi”.

SH.X.Fayziev ta'kidlaganidek, “Ekologik-huquqiy normalarning amalga oshirilishida ekologik audit muhim vosita bo'lib hisoblanadi.

Ekologik audit – bu ekologik auditorlar yoki ekologik auditorlik tashkilotlarning atrof muhitga ta'sir ko'rsatuvchi xo'jalik faoliyatini mustaqil tekshirish va atrof muhit va aholi salomatligiga salbiy ta'sirni kamaytirish bo'yicha tavsiyalarini ishlab chiqishdan iborat bo'lgan tadbirkorlik faoliyatidir.

Ekologik auditning huquqiy holati O'zbekiston Respublikasining “Ekologik ekspertiza to'g'risida”gi Qonunida mustahkamlangan bo'lib, unda ekologik audit ekologik ekspertiza bilan chambarchas bog'liq bo'lgan, shuningdek o'z xususiyatlariga ega bo'lgan muhim huquqiy vosita sifatida tartibga solingan.

Ekologik audit ekologik zararli xo'jalik faoliyatini profilaktika qilishning muhim usuli sifatida qonunchilikda ushbu sohadagi munosabatlar atroflicha tartibga solinishi lozim”. Bu borada A.A.Nuridullaevning quyidagi fikriga yuzlanamiz: ekologik audit mazmunan auditdan farq qiladi.

Xususan, 2000 yil 26 maydagi “Auditorlik faoliyati to'g'risida”gi (yangi tahriri) Qonun auditni iqtisodiy va moliyaviy tisdagi auditorlik xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'laydi. Ekologik audit esa, xo'jalik yurituvchi subyektning atrof tabiiy muhitga ta'sir ko'rsatishga oid barcha faoliyat sohalarini qamrab oladi. Ya'ni, mazmunan ekologik auditning obyektiga nisbatan kengroq doiradagi

munosabatlarni qamrab oladi. Demak, ekologik audit va audit bir-biridan yuqoridagi jihatlari bilan farqlanadi”.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni huquqiy ta'minlashda jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirishda ekologik audit muhim bo'lib hisoblanadi.

Ekologik audit jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirishda ekologik axborotni olish va baholash, tegishli choralar ishlab chiqish hamda turli darajadagi qarorlar qabul qilishda ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ4947-сон «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони // www.lex.uz.
2. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2018. – 250 б.
3. Турдубоева Р.Э. Экологик қонунчиликни амалга оширишда экологик онг ва экологик маданиятни ўрни // “Экологик қонунчиликни қўллаш механизмини такомиллаштириш муаммолари” мавзусидаги илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент: ТДЮИ, 2007. – Б. 89.
4. Нигматов А.Н. Ўзбекистон Республикасининг экология ҳуқуқи. Дарслик. Масъул муҳаррир: М.Б.Усмонов. – Тошкент: ТДЮИ, 2004, 106-бет
5. Файзиёв Ш.Х. Теоретические проблемы правового обеспечения экологической политики Республики Узбекистан: Дис...док. юрид. наук. – Тошкент: ТГЮИ, 2004, 211-212-бетлар
6. Нуридуллаев А.А. Ўзбекистон Республикасида экологик экспертизани ҳуқуқий таъминлаш масалалари: Юрид. фан. номз....дисс. –Т., 2011, 103-104- бетлар